

Giyohvandlik – asr illati

2018 yil 18 dekabr kuni Institut ma'ruzalar zalida "Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" fakulteti talaba yoshlariga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Narkotik moddalarni nazorat qilish milliy markazi bilan hamkorlikda ta'lim muassasalari talaba yoshlari orasida giyohvandlik va narkotik moddalar bilan bog'liq jinoyatlarning sodir etilishini oldini olish maqsadida "Yoshlar orasida giyohvand vositalarining tarqalishiga qarshi kurash" mavzusida ma'rifiy uchrashuv bo'lib o'tdi.

Tadbirda institut Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor Q.Shavazov, Narkotik moddalarni nazorat qilish milliy markazi yetakchi eksperti Jumanova Saodat Sodiqovna, "SXTE va B" fakulteti dekani O.Kucharov, Yoshlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i Z.Haydarov, guruh murabbiylari hamda 156 nafar talabalar ishtirok etdi. Tadbirni prorektor Q.Shavazov kirish so'zi ochib berib, mavzu doirasida o'z fikr-mulohazalari bilan o'rtoqlashdi, shundan so'ng ma'ruzachiga navbatni berdi.

Ma'ruzachi S. Jumanova mamlakatimizda giyohvandlik va narkotik moddalarga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan amaliy harakatlar, narkotik moddalarning inson salomatligiga o'ta salbiy zararlari va uning oqibatlari, narkotik moddalari bilan kasallangan insonlarni davolash va rehabilitatsiya qilish markazlari va narkodispenserlar faoliyati bo'yicha ma'lumotlar berildi. Tadbir qizg'in savol-javoblar va munozaralar asosida o'tdi.



"SXTE va B" fakulteti dekani o'rinbosari J.Turdiyev axboroti

Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov